

**“TBC Bank” ATBda ish haqi loyihasi doirasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatishning
UMUMIY SHARTLARI**

Mazkur Umumiy shartlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda – “Bank”) ommaviy ofertasi bo‘lib, Bankning ish haqi loyihasi doirasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o‘rinlarda – “Mijoz”) xizmat ko‘rsatish tartibi hamda shartlarini belgilaydi.

Mijoz tomonidan mazkur Umumiy shartlarning 1-ilovasida keltirilgan shaklda Bankning masofaviy servislari (shu jumladan mobil ilova va veb-sayt) orqali bir martalik parolni (OTP-kodni) kiritish yo‘li bilan tasdiqlash orqali ariza berilishi mazkur Umumiy shartlarning aksepti hisoblanadi.

Mazkur ariza bir vaqtning o‘zida Mijozning ish haqi loyihasi doirasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun tranzit hisob raqamini ochish to‘g‘risidagi arizasi ham hisoblanadi.

Bunday arizaning berilishi Mijoz tomonidan mazkur Umumiy shartlarning barcha bandlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilganini, shuningdek, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Bank xizmatlari uchun haq to‘lashga rozi ekanligini anglatadi.

Mijoz mazkur Umumiy shartlar bilan tartibga solinmagan munosabatlar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan “TBC Bank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmat ko‘rsatishning Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda – “KBX”) bilan tartibga solinishini tasdiqlaydi va bunga o‘z roziligini bildiradi. Mijoz ularning mazmuni bilan tanishib chiqqanligini, ularning shartlarini tushunganligini va to‘liq qabul qilganligini tasdiqlaydi.

1. ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. **Bank kartasi** - Bank tomonidan Mijozning Xodimi nomiga emissiya qilingan, pul mablag'larini olish, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun haq to'lash, shuningdek, Bank tomonidan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan shartlar doirasida boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi to'lov vositasi.

1.2. **MBX** - Bankning dasturiy-texnik kompleksidan iborat hamda Mijozga masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, shu jumladan Bankning mobil ilovasi va veb-versiyasi (veb-interfeysi) orqali Bank bilan masofadan turib o'zaro hamkorlik qilish, hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlarni olish va Bank tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi masofadan bank xizmatini ko'rsatish tizimi.

1.3. **Ish haqi loyihasi** - Bank belgilagan tartibda Mijoz tomonidan shakllantirilib, Bankka yuborilgan reyestrlar (qaydnomalar) asosida pul mablag'larini Bank tomonidan Mijoz xodimlari uchun emissiya qilingan plastik kartalarga o'tkazish yo'li bilan Bankning Mijozga MBX tizimi orqali Mijoz xodimlarining ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar va boshqa to'lovlarni hisoblashni tashkil etishga qaratilgan bank xizmatlari majmui.

1.4. **JSHSHIR** - O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsga beriladigan hamda davlat axborot tizimlarida uni identifikatsiyalash, shuningdek, davlat, bank va boshqa xizmatlaridan foydalanish uchun qo'llaniladigan noyob identifikatsiya raqami.

1.5. **Mijoz xodimi** - Mijoz bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida mehnat munosabatlarida bo'lgan hamda Mijoz uning foydasiga ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar va boshqa to'lovlarni amalga oshiradigan jismoniy shaxs.

1.6. **OTP-kod (One-Time Password)** - Bank tomonidan shakllantiriladigan va Mijozga Bank belgilagan aloqa kanallari orqali yuboriladigan, Mijozning MBX tizimida xatti-harakatlarini tasdiqlash uchun foydalaniladigan, shuningdek, operatsiyalarni amalga oshirishda va shartnomaviy hujjatlar shartlarini qabul qilishda Mijozning shaxsan imzolagan imzosining analogi sifatida tan olinadigan bir martalik parol.

1.7. **karta hisobvarag'i** - Bank tomonidan jismoniy shaxs nomiga ochiladigan, pul mablag'larini, bank kartasi bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank karta emitenti Bankining ichki qoidalariga muvofiq bank kartasidan foydalangan holda hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i.

2. UMUMIY SHARTLAR PREDMETI

2.1. Mazkur Umumiy shartlarning predmeti Bankning masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish tizimi (MBX) orqali amalga oshiriladigan ish haqi loyihasi doirasida bank xizmatlarini ko'rsatishda Mijoz va Bank o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibini tartibga solish, shu jumladan:

2.1.1. Mijozning tranzit hisob raqamini ochish va unga xizmat ko'rsatish;

2.1.2. faqat "Salom card" bank kartasidan (bundan keyin matnda "Bank kartasi" deb yuritiladi) foydalanganda xizmat ko'rsatish uchun hamda ushbu Umumiy shartlarda va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar va boshqa to'lovlarni jismoniy shaxslar - Mijoz Xodimlarining Bankda ochilgan (ochiladigan) bank hisob raqamlariga kirim qilish.

2.2. Mijozning ish haqi loyihasi doirasidagi barcha xatti-harakatlari, shu jumladan ariza berish, reyestrlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlarni shakllantirish va yuborish Bankning MBX tizimi orqali elektron shaklda amalga oshiriladi. Bankning MBX tizimi orqali shakllantirilgan va yuborilgan elektron hujjatlar qog'oz shaklidagi hujjatlarga tenglashtirilgan hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik kuchga ega bo'ladi.

2.3. Mijoz keyinchalik Bank tomonidan Mijoz xodimlarining bank hisob raqamlariga o'tkazish uchun yoxud reyestr shakllantirilib, ijro uchun Bankka yuboriladigan sanada ko'rsatilgan tranzit raqamida yetarlicha pul mablag'lari qoldig'i mavjud bo'lishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul mablag'larini Bankda Mijoz nomiga ochilgan tranzit hisob raqamiga o'tkazish majburiyatini oladi

2.4. Mijozning transit hisob raqamida yetarlicha miqdorda pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, Bank Mijoz tomonidan shakllantirilgan va Bankning MBX orqali yuborilgan elektron reyestrlar asosida Mijozning Xodimlari hisob raqamlariga pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshiradi.

3. TOMONLARNING XATTI-HARAKATLARI TARTIBI

3.1. Mijoz Bankning MBX tizimiga kirish va tegishli bo'limga o'tish orqali "Ish haqi loyihasi" xizmatini ulaydi hamda tegishli arizani rasmiylashtirish orqali xizmatni ulaydi, shundan so'ng ish haqi loyihasi doirasida keyingi o'zaro hamkorlik olib boriladi.

3.2. Mijoz ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish maqsadida xodimlarning JSHSHIR va MBX funksiyasida nazarda tutilgan boshqa zarur ma'lumotlarni kiritish yo'li bilan xodimlar reyestrini shakllantiradi. Mijoz taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgardir.

3.3. Agar Mijozning xodimi avval Bank mijozi bo'lmagan bo'lsa, Mijoz ushbu xodimning mobil telefon raqamiga Bank tomonidan jismoniy shaxslar uchun MBX tizimida ro'yxatdan o'tish va keyinchalik to'lovlarni olish maqsadida bank kartasini emissiya qilishga doir taklifnoma yuborish uchun zarur bo'lgan aloqa ma'lumotlarini ko'rsatadi.

3.4. Bank xodimlarga jismoniy shaxslar uchun Bankning MBX tizimida ro'yxatdan o'tish uchun taklifnoma yuboradi. Ro'yxatdan o'tish yakunlangach, xodim ish haqi loyihasi doirasida ish haqi va boshqa to'lovlarni qabul qilishga mo'ljallangan Bankning bank kartasini rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3.5. Mijoz xodimlar reyestrini shakllantirgach, MBX tizimi orqali qaydnomani shakllantiradi, har bir xodim bo'yicha alohida o'tkazma summasini ko'rsatadi va Mijozning mobil raqamiga yuborilgan OTP-kodi bilan o'tkazma operatsiyalarini amalga oshirishga roziligini tasdiqlagan holda Bankka tegishli farmoyish yuboradi. Qaydnoma MBX tizimida qo'lda yoki Microsoft Excel formatidagi faylni ilova qilish orqali shakllantirilishi mumkin.

Mijoz qaydnomani tasdiqlashi bilan qaydnomaning umumiy summasiga teng miqdordagi pul mablag'lari Mijozning hisob raqamidan yechib olinadi hamda ish haqi loyihasi doirasidagi operatsiyalarni amalga oshirish maqsadlari uchun ochilgan tranzit hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.6. Mijoz xodimlar foydasiga to'lovlarni amalga oshirish uchun hisob raqamda yetarli pul mablag'lari mavjudligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bank faqat Mijoz ro'yxatiga kiritilgan va rasmiylashtirilgan bank kartasiga ega bo'lgan xodimlarga pul mablag'larini hisoblaydi va o'tkazadi.

Agar ayrim xodimlar bo'yicha qaydnomada xatolar aniqlansa, Bank qaydnomani qisman bajarishga - xatolar mavjud bo'lmagan xodimlarga ish haqi o'tkazishga haqli. Aniqlangan xatolar tufayli operatsiyani bajarish mumkin bo'lmagan xodimlar uchun ajratilgan pul mablag'lari Mijoz tomonidan aniqlangan xatolar bartaraf etilgunga va qaydnoma tuzatilgunga qadar tranzit hisob raqamda saqlanadi.

3.7. Bank Mijozning xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha topshiriqlarini bajarishda faqat qaydnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarga asoslanadi va Mijoz tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning noto'g'riligi yoki xatoligi bilan bog'liq oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

3.8. Reyestrda xatolar aniqlanganda, Mijozning hisob raqamida pul mablag'lari yetarli bo'lmaganda yoki xodimning yopiq bank kartasi mavjud bo'lganda, bunday xodim bo'yicha tegishli operatsiya Bank tomonidan amalga oshirilmaydi, bunda MBX tizimida Mijozga operatsiyaning bajarilmaganligi sababi ko'rsatilgan holda xatolik holati aks ettiriladi.

Agar Mijoz qaydnomani shakllantirib, pul mablag'larini tranzit hisob raqamiga o'tkazgandan so'ng ish haqini hisoblash bo'yicha operatsiyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilsa, pul mablag'lari tranzit hisob raqamidan Mijozning hisobraqamiga qaytarilishi lozim.

3.9. Bank kartasini emissiya qilish (chiqarish), uni qayta chiqarish, shuningdek, Mijozning xodimlariga bank hisobvarag'ini ochish bilan bog'liq barcha amallar "TBC Bank" ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlariga (keyingi o'rinlarda – "Bankning BSh") muvofiq amalga oshiriladi va tartibga solinadi.

4. TOMONLAR MAJBURIYATLARI

4.1. Mijoz majburiyatlari:

4.1.1. mazkur Umumiy shartlarga rioya qilish hamda ish haqi loyihasi doirasida Bank bilan Bankning MBX tizimi orqali o'zaro hamkorlik qilish;

4.1.2. Bankka xodimlar to'g'risidagi ishonchli, to'liq va dolzarb ma'lumotlarni, shu jumladan JSHSHIR, bog'lanish uchun aloqa ma'lumotlari va ish haqi loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish hamda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgar bo'lish;

4.1.3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini Bankka ish haqi loyihasini joriy etish uchun zarur bo'lgan hajmda taqdim etilishiga rozilik berilishini ta'minlash;

4.1.4. Bank tomonidan belgilangan format va tartibda reyestrlar (qaydnoma), farmoyishlar va boshqa hujjatlarni shakllantirish va MBX tizimi orqali Bankka yuborish;

4.1.5. Ish haqi va boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun Bankka yuborilgan reyestrlarni (qaydnomalarni) ijrosini ta'minlash maqsadida tranzit hisob raqamida yetarlicha miqdorda pul mablag'lari mavjud bo'lishini ta'minlash;

4.1.6. shakllantirilgan qaydnomalarning to'g'riligini o'z vaqtida tekshirish va ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarning mazmuni, shu jumladan hisoblangan summalar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar uchun javobgar bo'lish;

4.1.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq xodimlarning daromadlaridan soliqlar, majburiy to'lovlar va boshqa to'lovlarni mustaqil ravishda ushlab qolish hamda ularning to'g'ri hisoblanishi va o'tkazilishi uchun javobgar bo'lish;

4.1.8. MBX tizimidan tegishli tartibda foydalanishni ta'minlash, shuningdek, Mijoz nomidan MBX tizimiga kirish huquqi berilgan shaxslarning xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lish;

4.1.9. Ish haqi loyihasi doirasidagi operatsiyalar ijrosiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatolar, noaniqliklar yoki MBX tizimiga ruqsatsiz kirish holatlari aniqlangan taqdirda, bu haqda Bankni zudlik bilan xabardor qilish;

4.1.10. ish haqi loyihasi xizmatidan faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish maqsadida foydalanish.

4.2. Bank majburiyatlari:

4.2.1. Bankning mazkur Umumiy shartlariga va ichki tartib-taomillariga muvofiq MBX tizimi orqali "Ish haqi loyihasi" xizmatining ishlashini ta'minlash;

4.2.2. Bankning belgilangan talablariga mos kelgan taqdirda, Mijoz tomonidan Bankning MBX tizimi orqali yuborilgan elektron reyestrlar/qaydnomalar, farmoyishlar va boshqa hujjatlarni qabul qilish hamda ularga ishlov berish;

4.2.3. Bankning KBXda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Mijozning tranzit hisob raqamini ochish va unga xizmat ko'rsatish;

4.2.4. Mijozning tranzit hisob raqamida yetarlicha miqdorda pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, Mijoz tomonidan MBX tizimi orqali shakllantirilgan va yuborilgan qaydnomalar asosida Mijoz xodimlarining bank hisobvaraqlariga pul mablag'larini o'tkazish;

4.2.5. to'g'ri rasmiylashtirilgan qaydnoma olingan sanadan boshlab 2 (ikki) bank ish kuni mobaynida va Mijozning tranzit hisob raqamida yetarlicha pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, ish haqi loyihasida ishtirok etayotgan Mijoz xodimlarining (ishchilarining) karta hisobvaraqlariga pul mablag'larini o'tkazish.

Tegishli qaydnoma to'g'ri to'ldirilgan taqdirda, unda ko'rsatilgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarning summalarini o'tkazish;

4.2.6. Mijoz xodimlariga Bankning jismoniy shaxslar uchun MBX tizimida ro'yxatdan o'tish uchun taklifnomalar yuborish va ish haqi loyihasi doirasida to'lovlarni olish uchun Bankning bank kartasini rasmiylashtirish imkoniyatini ta'minlash;

4.2.7. mazkur Umumiy shartlarni bajarish doirasida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning KBXga muvofiq ta'minlash;

4.2.8. Mijozni ish haqi loyihasi doirasidagi operatsiyalarni bajarishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan texnik nosozliklar yoki MBX tizimi faoliyatidagi cheklovlar to'g'risida imkoniyat mavjud bo'lsa, Bankning KBXda nazarda tutilgan tartibda xabardor qilish;

4.2.9. o'z vakolati va texnik imkoniyatlari doirasida MBX tizimi orqali uzatiladigan elektron hujjatlarning saqlanishi va himoya qilinishini ta'minlash.

5. TOMONLAR HUQUQLARI

5.1. Bank huquqlari:

5.1.1. "Ish haqi loyihasi" xizmatini ko'rsatish tartibi, usullari va texnologiyasini, shu jumladan, reyestrlar (qaydnomalar), farmoyishlar va boshqa hujjatlarni MBX tizimi orqali yuborish shakli, mazmuni va usuliga qo'yiladigan talablarni mustaqil belgilash;

5.1.2. Mijozdan kelib tushgan reyestrlar (qaydnomalar)ning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish hamda xatolar, nomuvofiqliklar, ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki Bank talablari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi buzilganligi aniqlangan taqdirda ularni ijro etilishini rad etish yoki ijroni to'xtatib turish;

5.1.3. Mijozning tranzit hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmaganda yoki yetarli bo'lmaganda pul mablag'larini hisoblash va o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni bajarmaslik yoki to'xtatib turish;

5.1.4. Mijozning xodim (ishchi)lari karta hisobvaraqlariga quyidagi holatlarda ish haqini o'tkazmaslik:

- Mijoz qaydnomani taqdim etmaganda;
- Mijoz tomonidan taqdim etilgan qaydnomada xatolar yoki noaniqliklar mavjud bo'lganda.

5.1.5. Mazkur Umumiy shartlarning 5.1.4-bandida ko'rsatilgan holatlar aniqlangan taqdirda, 3 (uch) bank kuni ichida Mijoz xodimlarining (ishchilarining) karta hisobvaraqlariga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini ushbu mablag'lar ilgari o'tkazilgan hisobraqamiga qaytarish.

5.1.6. MBX tizimi orqali yuborilgan reyestrlar (qaydnomalar) va boshqa hujjatlarda Mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tekshiruv o'tkazish majburiyatisiz, faqat ushbu ma'lumotlarga tayanish;

5.1.7. texnik nosozliklar, profilaktika ishlari o'tkazilishi, dasturiy ta'minot yangilanishi yoxud operatsiyalarni xavfsiz o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda ish haqi loyihasi doirasida xizmatlar ko'rsatishni to'liq yoki qisman to'xtatib turish;

5.1.8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida, kompayens-nazorat, moliyaviy monitoring va tavakkalchiliklarni boshqarish talablarida nazarda tutilgan hollarda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish yoki cheklash;

5.1.9. Qonunchilik talablari, Bankning ichki tartib-qoidalari, shu jumladan identifikatsiya, operatsiyalarni tekshirish va tavakkalchiliklarni boshqarish maqsadlari uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni Mijozdan so'rash;

5.1.10. Bank tomonidan nazarda tutilgan usullar yordamida Mijozni xabardor qilish sharti bilan, Mijoz bilan oldindan kelishmasdan, MBX tizimi funksionali, operatsiyalarni qayta ishlash tartibi va hujjatlarga qo'yiladigan texnik talablarga o'zgartirishlar kiritish;

5.1.11. Ruxsatsiz kirish, shubhali operatsiyalar yoxud Bank yoki Mijoz uchun xavf tug'diruvchi boshqa holatlar aniqlanganda Mijozning ish haqi loyihasi xizmatidan foydalanishini to'xtatib turish;

5.1.12. Agar xodim Bankning BShda nazarda tutilgan bank kartalaridan foydalanish bo'yicha Bank yo'riqnomalariga rioya qilmasa, ish haqi loyihasida ishtirok etayotgan Mijoz xodimining bank kartasiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish;

5.1.13. Bank ushbu Umumiy shartlar, Bankning ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega.

5.2. Mijoz huquqlari:

5.2.1. Bankning masofaviy bank xizmatlari tizimi (MBX) orqali mazkur Umumiy shartlarda nazarda tutilgan shartlarda "Ish haqi loyihasi" xizmatidan foydalanish;

5.2.2. xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni hisoblash va o'tkazish uchun zarur bo'lgan reyestrlar (qaydnomalar), farmoyishlar va boshqa hujjatlarni shakllantirish va Bankka yuborish;

5.2.3. Bankning masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali yuborilgan reyestrlar (qaydnoma) va operatsiyalar ijrosining holati to'g'risida ma'lumot olish;

5.2.4. ijro uchun tegishli qaydnoma Bankka yuborilgunga qadar xodimlar ro'yxatiga, hisoblangan summalar va boshqa ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish;

5.2.5. mazkur Umumiy shartlar talablariga rioya qilgan va tranzit hisob raqamida yetarlicha pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda xodimlarga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni bajarishni Bankdan talab qilish.

6. TOMONLAR MAS'ULIYATI

6.1. Tomonlar ushbu Umumiy shartlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu Umumiy shartlarga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Mijoz quyidagilar uchun javobgar:

6.2.1. MBX tizimi orqali Bankka yuboriladigan reyestrlar (qaydnomalar), farmoyishlar va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning, shu jumladan xodimlarning ma'lumotlari va hisoblangan summaning ishonchliligi, to'liqligi va to'g'riligi uchun;

6.2.2. Mijoz nomidan MBX tizimiga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xatti-harakatlari va Mijozning autentifikatsiya vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun;

6.2.3. xodimlarning daromadlaridan soliqlar, majburiy to'lovlar va boshqa to'lovlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o'tkazish uchun.

6.2.4. Mijoz, shuningdek, ish haqi loyihasida ishtirok etadigan o'z xodimlari ro'yxatining dolzarbligi va to'g'riligi uchun ham javobgardir. Yangi xodimlar ishga qabul qilingan yoxud xodimlar ishdan bo'shatilgan taqdirda, Mijoz Bankka yuboriladigan tegishli ma'lumotlar va xodimlar ro'yxatini o'z vaqtida yangilab turish majburiyatini oladi.

6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

6.3.1. Mijoz tomonidan xodimlarga ish haqi to'lashda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanmaganligi, to'liq to'lanmaganligi yoxud o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun;

6.3.2. Mijoz tomonidan noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki xato ma'lumotlar taqdim etilishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun, shuningdek, Mijozning reyestrlarni (qaydnomalarni) tuzish, shakllantirish va yuborishda sodir etgan har qanday xatti-harakatlari uchun, shu jumladan xodimlar va hisoblangan summalar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish uchun.

6.3.3. Mijozning tranzit hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan hollarda operatsiyalar bajarilishini kechiktirganlik yoxud ularni bajarmaganlik uchun.

6.3.4. Mijoz xodimlarining xatti-harakatlari yoki harakatsizligi, shu jumladan Bankning MBX tizimida ro'yxatdan o'tmaganligi, bank kartasini olmaganligi yoxud pul mablag'larini hisobga olishga to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlar uchun.

6.3.5. ish haqi loyihasi doirasida operatsiyalarni bajarish yoki bajarmaslik oqibatida Mijoz yoki uning xodimlarida yuzaga kelgan bilvosita zararlar, boy berilgan foyda yoxud boshqa oqibatlar uchun, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.4. Agar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda tasdiqlangan yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Tomonlar ushbu Umumiy shartlar bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

6.5. Tomonlarning mazkur Umumiy shartlarda ko'zda tutilmagan javobgarligi Bankning KBX va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi va tartibga solinadi.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar va boshqa to'lovlarni hisoblash va o'tkazish operatsiyalari ushbu Umumiy shartlarning amal qilish muddati davomida Mijoz tomonidan Bankning MBX tizimi orqali yuboriladigan reyestrlar (qaydnomalar) asosida bir necha bor amalga oshirilishi mumkin.

7.2. Ish haqi loyihasi doirasida shartnoma bekor qilinganda, xodimlarning bank kartalari Bank shartlari asosida o'z kuchini saqlab qoladi; Mijozning hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari qoldiqlari Mijozning tasarrufida qoladi va undan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanadi; tugallanmagan reyestrlar (operatsiyalar) mavjud bo'lganda, Mijoz xizmat ko'rsatish tugatilgan sanagacha ularni bajarishni yakunlash yoki MBX tizimi orqali bekor qilish majburiyatini oladi.

7.3. "Ish haqi loyihasi" xizmatini taqdim etishni va (yoki) undan foydalanishni to'xtatish asoslari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ushbu Umumiy shartlarga va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7.4. Ish haqi loyihasi doirasida Mijoz tomonidan yuboriladigan reyestrlar (qaydnomalar)ning shakli, tuzilishi va ularga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankning ichki tartib-taomillari yoxud texnik talablar o'zgarishi sababli Bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin. Bank kommunikatsiya kanallari orqali Mijozni bunday o'zgarishlar haqida xabardor qiladi.

7.5. Agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki Bankning KBXda boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Tomonlarning har biri ikkinchi Tomonni mo'ljallanayotgan to'xtatish sanasidan kamida 1 (bir) kalendar oy oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda "Ish haqi loyihasi" xizmatidan foydalanishni muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega.

7.6. Tomonlar mazkur Umumiy shartlarni bajarish yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish uchun barcha oqilona choralarni ko'radilar. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar Bank filiali joylashgan tumanlararo iqtisodiy sudda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

7.7. Bank bir tomonlama tartibda ushbu Umumiy shartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli. Bunday o'zgartirishlar Bankning rasmiy veb-saytida va (yoki) MBX tizimida joylashtiriladi va agar Bank yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ular e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7.8. Mijoz o'zgartirilgan Umumiy shartlarning Bank rasmiy manbalarida e'lon qilinishi Mijozni tegishli tarzda xabardor qilish usuli ekanligini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi.

7.9. Tomonlardan hech biri ikkinchi Tomonning yozma roziligisiz ushbu Umumiy shartlar bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga yoki berishga haqli emas, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki Bankning ichki tartib-taomillarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

7.10. Mazkur Umumiy shartlar bilan bevosita tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, shuningdek, "TBC Bank" ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatishning Bosh Shartlariga amal qiladi.

7.11. Mijoz Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan "TBC Bank" ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmat ko'rsatishning Bosh Shartlari bilan tanishganligini tasdiqlaydi, ularni to'liq qabul qiladi hamda ushbu shartlar Mijoz va Bank o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning ajralmas qismi ekanligiga rozilik bildiradi.

7.12. Mazkur Umumiy shartlar Mijoz Bankning MBX tizimi orqali "Ish haqi loyihasi" xizmatiga ulanish uchun buyurtma (ariza) berish orqali ularni qabul qilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar doirasida xizmat ko'rsatishning butun muddati davomida amal qiladi.

**“TBC Bank” ATBda ish haqi loyihasi doirasida yuridik shaxslar
va yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatishning
Umumiy shartlariga 1-ilova**

**“TBC Bank” ATBda ish haqi loyihasi doirasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatishning Umumiy shartlariga qo‘shilish to‘g‘risidagi
ARIZA**

Mijoz: _____
(to‘liq nomi, STIR)

Mijoz ushbu bilan ish haqi loyihasi doirasida xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzish niyatini bildiradi va Bankdan xizmat ko‘rsatishning Umumiy shartlarida (bundan keyin “Umumiy shartlar” deb yuritiladi) belgilangan shartlarda Ish haqi loyihasi doirasida “Ish haqi loyihasi” xizmatini ulashni so‘raydi.

Mazkur arizaning Bankning masofaviy servisi orqali bir martalik parol (OTP-kod) bilan tasdiqlagan holda yuborilishi Umumiy shartlarga qo‘shilishning tasdig‘i hisoblanadi. Bunday tasdiqlash tegishli aksept deb tan olinadi hamda Mijoz Umumiy shartlarning barcha bandlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilganini, shuningdek, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq bank xizmatlari uchun haq to‘lashga rozi ekanligini anglatadi.

Mazkur ariza bir vaqtning o‘zida Mijozning ish haqi loyihasi doirasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan tranzit hisob raqamini ochish to‘g‘risidagi arizasi ham hisoblanadi.

Mijoz Umumiy shartlar bilan tanishib chiqqanligini, ularning mazmunini tushunganini va to‘liq hajmda qabul qilishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, Mijoz Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida hamda xavflarni boshqarish tartib-taomillarida nazarda tutilgan holatlarda xizmatni ulash va (yoki) shartnoma tuzishni rad etishga haqli ekanligini tushunadi va rozi bo‘ladi.

(Mazkur Ariza bir martalik parol (OTP-kod) bilan tasdiqlash orqali imzolanadi. Bu, o‘z navbatida, Mijozning shaxsan o‘zi qo‘ygan imzosi sifatida tan olinadi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik kuchga ega)

Ariza topshirilgan sana Bankning MBX tizimida avtomat ravishda shakllantiriladi.